Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	
Mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari.....	1370
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari.....	1375
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari.....	1381
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li	
"O'zneftgaz" AK tizimidagi korxonalarda joriy aktivlarning sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sirini perespektiv tahlili	1386
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari.....	1392
Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Boltayeva Mohichehra Sharipovna	
"Xufiyona iqtisodiyot"ning jamiyatga ta'siri	1397
Mirzayev Zarshed Mirzayevich, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Kichik va o'rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari....	1400
Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari	1404
Beknazarova Nilufar Tulkinovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o'rni.....	1407
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna	
Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo'llari	1411
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
Oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari va natijalari.....	1417
Umarova Xilola Uktamovna	
Korxonalar faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning afzallik va kamchiliklari.....	1426
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA NATIJALARI



Umarova Xilola Uktamovna

I.f.f.d. (PhD), Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Ta'lim menejmenti kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya: O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimi ta'lim muhitini shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tizimning asosiy xususiyatlari va natijalarini ko'rib chiqamiz, ya'ni O'zbekiston universitetlarida strategik menejment tizimining xususiyatlari: maqsadga yo'naltirilganligi, moslashuvchanligi, kompleks yondashuvi, sifat menejmenti, strategik rejalashtirish kabilar sanaladi.

Strategik boshqaruv tizimining natijalari: ta'lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, sanoat, innovatsiyalar va texnologiyalar bilan aloqalarni mustahkamlash, akademik harakatchanlikni oshirish, barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi. Yangi O'zbekiston OTMlarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ishlab chiqarish bilan aloqalarni mustahkamlash va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bilan birga mamlakatimiz barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, moslashuvchanlik, fan va ta'lim integratsiyasi, sifat menejmenti, ta'lim dasturlari, bitiruvchilarni ishga joylashtirish, akademik harakatchanlik, ijtimoiy mas'uliyat.

Abstract: The strategic management system in higher educational institutions of Uzbekistan plays an important role in shaping the educational environment and improving the quality of education. We will consider the main characteristics and results of this system, that is, the characteristics of the strategic management system in the universities of Uzbekistan are: goal orientation, flexibility, comprehensive approach, quality management, strategic planning.

The results of the strategic management system: increase the quality of education, expand international cooperation, strengthen ties with industry, innovation and technology, increase academic mobility, increase sustainable development and social responsibility. Improving the strategic management system in HEIs of Uzbekistan serves to increase the quality of education, expand international cooperation, strengthen relations with production, and train competitive specialists, while supporting the sustainable development of our country.

Key words: advanced training, flexibility, adaptability, integration of science and education, quality management, educational programs, graduate employment, academic mobility, social responsibility.

Аннотация: Система стратегического управления в высших учебных заведениях Узбекистана играет важную роль в формировании образовательной среды и повышении качества образования. Мы рассмотрим основные характеристики и результаты данной системы, то есть характеристиками системы стратегического управления в вузах Узбекистана являются: целенаправленность, гибкость, комплексный подход, управление качеством, стратегическое планирование.

Результаты системы стратегического управления: повышение качества образования, расширение международного сотрудничества, укрепление связей с промышленностью, инновациями и технологиями, повышение академической мобильности, повышение устойчивого развития и социальной ответственности. Совершенствование системы стратегического управления в вузах Узбекистана служит повышению качества образования, расширению международного сотрудничества, укреплению связей с производством, подготовке конкурентоспособных специалистов, одновременно поддерживая устойчивое развитие нашей страны.

Ключевые слова: повышение квалификации, гибкость, адаптивность, интеграция науки и образования, управление качеством, образовательные программы, трудоустройство выпускников, академическая мобильность, социальная ответственность.



KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmun-mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogika fanining oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo'nalishidagi mavjud muammolarni bartaraf etishda amalga oshiriladigan izlanishlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida yaratilgan va ilmiy asoslangan yangiliklar, taklif etilayotgan strategik boshqaruv texnologiyalari, modellar, ilmiy muaomalaga kiritilayotgan yangi ma'lumotlar, tahlillar, xulosa va tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi zarur. Oliy ta'lim tashkilotlarida strategik boshqaruvni joriy etish tizimiga doir tajriba-sinov ishlari o'quv reja va dasturlar, o'quv-metodik ta'minot va pedagoglar kasbiy kompetentligini oshirish, ta'lim sifati monitoringi tizimlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqot farazlarini asoslashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni tizimli islohotlar sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan davrda pedagogik tajriba-sinov uchun bir vaqtda faoliyat yuritayotgan ikkita guruhni tajriba va nazorat guruhi sifatida tanlab olish lozim. Agar tahlilning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvning natijalarini baholashdan iborat bo'lsa, nazorat guruhi sifatida oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni an'anaviy usul bilan baholash qaraladi.

Tajriba-sinovlarning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etish tizimini boshqarish, jumladan, o'quv reja, dastur va darsliklarni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishdagi rolini ko'rsatish va matematik statistika metodlari vositasida baholashdan iborat.

Shuningdek, tizimli o'zgarishlar bosqichma-bosqich, uzluksiz va uzviylikda joriy etib borilganligi tufayli tajriba-sinov ishlarining asosiy vazifasi – oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv jarayoniga zamonaviy yondashuvni joriy etishning tashkiliy-metodik tizimini boshqarish mexanizmlariga kiritilgan o'zgarishlarning ta'lim sifatiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy farazi – oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv jarayoniga zamonaviy yondashuvni joriy etishning tashkiliy-metodik tizimini boshqarishda ta'lim menjmenti fanining talablari asosida, ya'ni o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirilgan o'quv reja, dastur va darsliklar, o'quv-metodik resurslarni joriy etishni metodik qo'llab-quvvatlash asosida tashkil etish orqali ta'lim sifatining oshishini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni tasdiqlandi. Unga ko'ra, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda "Innovatsion menejment", "Loyiha boshqaruvi", "Tijoratlashtirish", "Intellectual mulkni boshqarish" yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va 2022–2023-o'quv yilidan boshlab tegishli oliy ta'lim muassasalarida joriy qilish vazifasi belgilangan ^[1].

Ta'kidlash joizki, bu borada xorijiy olimlar M.Meskon, M.Albert, F.Xedourining fikricha, boshqaruv sifati tashkilotning faoliyati natijalari hamda ularga erishish yo'llari va vositalarini tanlab olishni belgilab beradi. Tashkilot oldida turgan vazifalarni samarali hal qilish uchun yaxshi tashkil etilgan va o'zaro uyg'unlikdagi jamoa zarur bo'ladi. Bunda uning har bir a'zosi o'z ishini biladi va uni bajaradi, bir maromda, uzilishlarsiz ishlaydi hamda muammolarning ko'pchiligini nizolarsiz hal qiladi, yakuniy natijalardan manfaatdor bo'ladi ^[2].

Rahbariyatning bosh vazifasi – bu eng kam sarf-xarajatlar va eng qisqa muddatlarda tashkilot oldida turgan maqsadlarga erishishdir, deb hisoblaganlar. Bu vazifani hal qilishda M.Meskon, M.Albert, F.Xedouri, R.Daft hamda V.Vesninlarning fikriga ko'ra, menejment nazariyasi va amaliyoti to'rtta asosiy funksiyalar negiziga quriladi ^[3, 4].

M.Axmedov "fikrimizcha, "Boshqaruvning zamonaviy yondashuvlariga muvofiq sifatni ta'minlash: maqsadni belgilash, rejalashtirish, usul va vositalarni tanlash, monitoring va baholash, tahlil va korreksiya ketma ketligida amalga oshiriladi. Ushbu ketma ketlikning asosiy bo'g'ini bo'lgan samarali monitoring va baholashni amalga oshirmay turib ta'lim jarayoni va butun ta'lim tizimining sifatini samarali boshqarish imkoniyati mavjud emas, muassasada sifatni ta'minlashda boshqaruv subyektlari doimiy ishonchli axborotlarga ehtiyoj sezadi", deb hisoblaydi ^[5].

U.Inoyatovning fikricha, ta'lim tizimini boshqarish darajasi va yo'nalishlariga ko'ra farqlanadi. Jumladan:

- 1) darajasiga ko'ra – umumdavlat, tarmoqlararo, tarmoq, mahalliy va umumiy ta'lim maktablarining ichki boshqaruvi;
- 2) yo'nalishlariga ko'ra – tashkiliy, tizimli, mazmunli, kadrlar masalasi nuqtayi nazaridan va metodik ^[6].



R.Djurayev “monitoring – ta’lim tizimi yoki uning alohida elementlari to’g’risida asosli xulosalar chiqarish, xoxlagan vaqtda uning holatini baholash va tahlil qilish imkonini beruvchi ma’lumot bilan ta’lim tizimi boshqaruvini ta’minlash maqsadida axborot yig’ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish”, deb ta’riflaydi [7].

F.Teylor va F.Gilbert birinchi bo’lib ilmiy boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqishgan va uning asosiga ilmiy metodlar va texnologik standartlarni, mutaxassislarni ularning qobiliyatlarini hisobga olgan holda tanlab (ishga) olish tamoyillarini, ularning ta’limi va rivojlanganligining munosib darajasini ta’minlash, mutaxassislarning ish beruvchilar bilan psixologik jihatdan mos kelishini hamda hamkorligi va kooperatsiyasini, mutaxassislarning mehnati va ishlab chiqarish vositalaridan ratsional foydalanishni qo’yganlar [8, 9].

M.Guslova, R.Daft, F.Druker, V.Zligostev, A.Kravchenko, F.Teylor, M.Uorner, O.Xijinskayalar boshqaruv ilmi shakllanishining davomi G.Emerson nomi bilan bog’lashgan, u mehnat faoliyatini ratsionallashtirishga, mehnat mahsulдорligini oshirishga, korxonada ijtimoiy munosabatlarni me’yorlashtirish, tashkil etish va yo’lga qo’yish orqali erishishga urinib ko’rgan [10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18].

R.Daft, F.Druker, V.Zligostev, A.Kravchenko, F.Teylor, M.Uorner, G.Emerson, G.Fordlar XX asrning birinchi yarmida boshqarishning tashkilotchilik faoliyati mazmunini universal tamoyillar asosida o’rgangan neoklassik (ma’muriy) maktabi ilmiy qiziqishlar predmetiga aylandi. Uning rivojlanishi ma’muriy boshqarishning tamoyillari va funksiyalarini ishlab chiqqan A.Fayolning faoliyati bilan bog’liq. Xususan, tadqiqotchi boshqaruvchilik faoliyatini alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratish zarurligini isbotlagan hamda tashkilotning rasmiy strukturasi ahamiyatini ko’rsatib bergan. A.Fayol tashkilotni tashkil etish tizimini rag’batlantirish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish kabi asosiy boshqaruvni funksiyalaridan iborat jarayon sifatida o’rgangan [19, 20].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Strategik boshqaruv konsepsiyasiga muvofiq dastlabki nazorat bosqichidan keyin kutilmagan o’zgarishlarni hisobga olgan holda strategiyani amalga oshirishni boshqarish boshlanadi. Bu yerda yo’naltiruvchi nazorat usulidan foydalaniladi. Strategiya bajarildi, deb hisoblanganda olingan natijalar bo’yicha natijaviy nazorat amalga oshiriladi. Nazoratning bu turi qo’yilgan maqsad va vazifalarga erishish samaradorligini baholash va tahlil qilishga yo’naltirilgan. Ushbu tahlil natijalariga bog’liq holda strategik boshqaruv jarayoni yoki strategiyaga tuzatishlarni kiritish uchun “vazifalarni qo’yish” bosqichiga qaytadi yoki yangi strategik harakatni ishlab chiqish uchun rivojlanishning keyingi darajasiga o’tadi.

Oliy ta’lim muassasasining muvozanatlashtirilgan asosiy ko’rsatkichlari tizimi va uni qo’llash samaradorligini baholash mexanizmi asosida tajriba sinov ishlari o’tkazish asosida yakuniy xulosalar olish va natijalarni tahlil qilish ishlari olib borish rejalashtirildi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv (so’rovnomalar), test sinovlari va sotsiometrik metodlar (anketa, suhbat)lar asosida baholash ishlari olib borildi va oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini baholash darajalari ishlab chiqildi.

Oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda tashkil etildi:

- O’rganuvchi bosqich (2018–2019-o’quv yili);
- Asoslovchi bosqich (2019–2020-o’quv yili);
- Ta’kidlovchi bosqich (2020–2021-o’quv yili).

O’rganuvchi bosqich (2018–2019-o’quv yillar)ning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to’g’risidagi Nizomga asosan reytingni aniqlash mezonlarini o’rganib chiqish va ularning indikatorlarini tahlil qilishdan iborat bo’ldi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- reytingni aniqlovchi ko’rsatkichlarni o’rganish va tahlil qilish;
- ko’rsatkichlar indikatorlarini aniqlash va ularni ajrata bilish;
- baholash metodologiyasi va uning o’lchovlarini tahlil qilish;
- har bir ko’rsatkichlar asosida hisoblash formulalarini aniqlash va tahlil qilish.

Asoslovchi bosqich (2019–2020-o’quv yillar)ning asosiy maqsadi aniqlangan ko’rsatkichlarni, baholash metodologiyasi va hisoblash formulalari asosida ta’lim muassasasiga joriy etishning imkoniyatlari va uning oshiruvchi ta’lim xizmatlarini nazorat qilishning samarali tizimini yaratishdan iborat bo’ldi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- indikatorlar va ularning ta’limni oshirish imkoniyatlari aniqlashtirildi;
- har bir indikatorda yuqori ko’rsatkichlarga ega bo’lishni ta’minlovchi mezonlar alohida ajratildi;
- ta’lim xizmatlarini nazorat qilishning elektron tizimi ishlab chiqildi va reytingni hisoblash jarayoniga tatbiq etildi.

Ta'kidlovchi bosqichning (2020–2021-o'quv yili) asosiy maqsadi joriy yilgi reyting ko'rsatkichlarini hisoblash jarayonida ishlab chiqilgan elektron tizimdan foyladanish samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Ta'kidlovchi bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- elektron tizim (elektron boshqaruvning kompleks tizimi)ni amaliyotga joriy etuvchi obyektlar aniqlashtirildi;
- ta'lim monitoringini olib boruvchi tizim tajriba-sinovdan o'tkazildi va tajriba-sinov natijalari matematik statistik usullar orqali tekshirildi va xulosalar chiqarildi.

O'rganuvchi bosqichda oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomga ilova qilib berilgan ko'rsatkichlar to'liq o'rganilib, tahlil qilindi.

OTM strategik boshqaruv asosida professor-o'qituvchilarning faoliyatlari bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor OTMning strategik boshqaruvi asosida professor-o'qituvchilarning faoliyatlariga qaratildi.

OTMlarining strategik boshqaruv samaradorligini aniqlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash ko'rsatkichlari va indikatorlarini bajarishda professor-o'qituvchilarning faoliyatlarini baholash maqsadida yuqori, o'rta va past ko'rsatkich darajasiga ega bo'lgan indikatorlar ishlab chiqildi.

Yuqori daraja – oliy ta'lim muassasalari reytingi ko'rsatkichlarida to'liq ishtirok etgan va yuqori natijalarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning takomillashgan faoliyati.

O'rta daraja – oliy ta'lim muassasalari reytingi ko'rsatkichlarida to'liq ishtirok etgan va o'rta natijalarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning takomillashgan faoliyati.

Past daraja – oliy ta'lim muassasalari reytingi ko'rsatkichlarida qisman ishtirok etgan va past natijalarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning takomillashgan faoliyati.

Tajriba-sinov va nazorat guruhlarida jami 161 nafar professor-o'qituvchilar ishtirok etdilar. Shundan tajriba-sinov guruhlariga 81 nafar hamda nazorat guruhlariga 80 nafardan professor-o'qituvchilari tanlab olindi.

Tajriba-sinov ishlarida oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan fanni o'qitish bo'yicha talabalar o'rtasida ham natijalar olindi. Bunda yuqorida tanlab olingan OTMlaridan 372 nafar talabalar ishtirok etdi. Bu talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, ularda mos ravishda 187 va 185 nafar talabar ishtiroki ta'minlandi. Tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida talabalarga ta'lim menejmenti fani o'qitildi va ularning shu fan bo'yicha baholash natijalari olindi. Tanlab olingan guruhlarda nazariy mashg'ulotlar har ikkala tajriba-sinov va nazorat guruhlarida ishlab chiqilgan dasturlar asosida olib borilgan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlar esa nazorat guruhida an'anaviy, tajriba-sinov guruhlarida esa muallif taklif etayotgan metodika bo'yicha o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

OTM professor-o'qituvchilarining o'z ish faoliyatlari bo'yicha hamda talabalarining ta'lim menejmenti fani bo'yicha tajriba-sinov ishlarida ishlab chiqilgan metodikasi samaradorligining miqdoriy mezonlari bo'lib quyidagilar tanlandi hamda Styudent mezoni yordamida tahlil qilindi.

x_i – tajriba-sinov guruhiga mos keladigan baholar. $i = \overline{1,3}$, y_i – nazorat guruhiga mos keluvchi baholar. $\bar{x}$ va $\bar{y}$ – tajriba va nazorat guruhlarida uchun mos keladigan o'rtacha arifmetik qiymatlar formulalari.

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i n_i}{n}; \bar{y} = \frac{\sum y_i m_i}{m} \quad (1)$$

Bu yerda: x_i, y_i – 3, 4, 5 qiymatli baholarni mos ravishda qabul qiladi.

n, m – tajriba va nazorat guruhidagi professor-o'qituvchilar soni.

n_i, m_i – mos baholarga nisbatan professor-o'qituvchilar soni.

O'quv jarayoni samaradorligini baholovchi o'rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlarida baholarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya'ni samaradorlik koeffitsiyenti quyidagicha olindi:

$$\eta = \frac{\bar{x}}{\bar{y}} \quad (2)$$

O'rtacha kvadratik og'ish kattaliklari:

$$S_x^2 = \frac{1}{n} \sum_i n_i \cdot (x_i - \bar{x})^2; S_y^2 = \frac{1}{m} \sum_i m_i \cdot (y_i - \bar{y})^2 \quad (3)$$



Standart og'ish kattaliklari:

$$S_x = \sqrt{S_x^2} \quad ; \quad S_y = \sqrt{S_y^2} \quad (4)$$

O'rtacha qiymatlarni aniqlash ko'rsatkichi:

$$C_x = \frac{S}{\sqrt{n} \cdot \bar{x}} \cdot 100 \quad \% \quad ; \quad C_y = \frac{S}{\sqrt{m} \cdot \bar{y}} \cdot 100 \quad \% \quad (5)$$

Bosh to'plamning noma'lum o'rta qiymatlari uchun ishonch oraliqlari:

$$a_x \in \left[\bar{x} - \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x; \bar{x} + \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x \right], \quad a_y \in \left[\bar{y} - \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y; \bar{y} + \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y \right] \quad (6)$$

Bu yerda t – normallashtirilgan chetlanish ishonch ehtimoli R asosida aniqlanadi. Bunda $R = 0,95$ da $t = 1,96$ ga teng.

Biz o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi $H_0: a_x = a_y$ farazni ilgari surib, unga qarama-qarshi $H_1: a_x \neq a_y$ ekanligini yuqoridagi ma'lumotlar asosida Student-Fisher statistikasi orqali tekshiramiz.

$$T_{m_1 n} = \frac{|\bar{y} - \bar{x}|}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} \quad (7)$$

Agar $T > T_r = t$ bo'lsa, N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz qabul qilinadi.

Biz quyida ushbu formulalarga asosanib, hisob ishlarini olib boramiz va ularni tahlillarini keltiramiz.

Endi tajriba-sinov ishlari bo'yicha natijalarning tahlillarini keltiramiz:

Professor-o'qituvchilarning tajriba sinov ishlaridagi statistik tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirildi (1-jadval).

1-jadval: Professor-o'qituvchilarning tajriba sinov ishlaridagi statistik tahlil natijalari

Ta'lim muassasalari			Toshkent davlat pedagogika universiteti	Buxoro davlat universiteti	Farg'ona davlat universiteti	Jami
O'rtacha arifmetik qiymat ($\bar{x}, \bar{y}$)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	3,61	3,48	3,46	3,52
		Nazorat guruhida	3,59	3,46	3,48	3,51
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	4,21	4,12	4,14	4,16
		Nazorat guruhida	3,63	3,54	3,59	3,59
Samaradorlik ko'rsatkichi η	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	1	1,01	1	1
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	1,16	1,16	1,15	1,16
		Nazorat guruhida				
O'rtacha qiymat standart xatolik (S_x, S_y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,52	0,41	0,46	0,47
		Nazorat guruhida	0,46	0,4	0,47	0,45
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	0,6	0,51	0,62	0,58
		Nazorat guruhida	0,46	0,4	0,54	0,47
Aniqlanish ko'rsatkichi (S_x, S_y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,04	0,04	0,04	0,02
		Nazorat guruhida	0,02	0,02	0,02	0,02
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	0,03	0,03	0,04	0,02
		Nazorat guruhida	0,02	0,02	0,02	0,02




O'rtacha qiymat ishonch oralig'i a_x, a_y	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	3,41	3,32	3,29	3,42
			3,8	3,64	3,64	3,62
		Nazorat guruhida	3,42	3,3	3,31	3,41
			3,76	3,62	3,66	3,61
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	3,99	3,92	3,91	4,03
			4,44	4,32	4,37	4,29
		Nazorat guruhida	3,62	3,53	3,59	3,58
			3,8	3,69	3,8	3,69
Styudent statistikasi (T)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,11	0,16	0,14	0,08
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	4,09	4,53	3,51	6,91
		Nazorat guruhida				
Ko'rsatkichlar xulosasi	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	N ₀ gipoteza qabul qilinadi	N ₀ gipoteza qabul qilinadi	N ₀ gipoteza qabul qilinadi	N ₀ gipoteza qabul qilinadi
		Nazorat guruhida	N ₀ gipoteza qabul qilinadi	N ₀ gipoteza qabul qilinadi	N ₀ gipoteza qabul qilinadi	N ₀ gipoteza qabul qilinadi
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	N ₁ gipoteza qabul qilinadi	N ₁ gipoteza qabul qilinadi	N ₁ gipoteza qabul qilinadi	N ₁ gipoteza qabul qilinadi
		Nazorat guruhida	N ₁ gipoteza qabul qilinadi	N ₁ gipoteza qabul qilinadi	N ₁ gipoteza qabul qilinadi	N ₁ gipoteza qabul qilinadi


Biz har bir bosqich bo'yicha matematik hisob kitoblarni olib bordik. Endi ushbu natijalarga ko'ra, Styudent statistikasining yuqoridagi 7-formulasidan foydalanib tekshiramiz va xulosalar chiqaramiz.

Tajriba guruhi: $T_m > T_{0,96} = t = 1,96$ Demak, N₀ faraz rad etilib, N₁ faraz qabul qilinadi.

Nazorat guruhi: $T_n < 1,96$ bo'lib, N₀ faraz qabul qilinadi.



2-rasm: Professor-o'qituvchilarining foaliyat ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari



3-rasm: Professor-o'qituvchilarining foaliyat ko'rsatkichlari bo'yicha samaradorligi



Tajriba-sinov ishlarida oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan fanni o'qitish bo'yicha talabalar o'rtasida ham natijalar asosida statistik tahlil ishlari olib borildi va tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirildi (2-jadval).


2-jadval: Talabalar o'rtasidagi statistik tahlil natijalari

Ta'lim muassasalari			TDPU	BuxDU	FarDU	Jami
O'rtacha arifmetik qiymat (x,y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	3,42	3,37	3,39	3,39
		Nazorat guruhida	3,41	3,35	3,39	3,38
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	3,94	3,89	3,9	3,91
		Nazorat guruhida	3,43	3,42	3,44	3,43
Samaradorlik ko'rsatkichi η	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	1,00	1,00	1,500	1
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	1,15	1,14	1,14	1,14
		Nazorat guruhida				
O'rtacha qiymat standart xatolik (S_x , S_y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,37	0,33	0,37	0,36
		Nazorat guruhida	0,34	0,33	0,33	0,33
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	0,42	0,45	0,44	0,44
		Nazorat guruhida	0,38	0,37	0,37	0,37
Aniqlanish ko'rsatkichi (S_x , S_y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,02	0,02	0,02	0,01
		Nazorat guruhida	0,02	0,02	0,02	0,02
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	0,02	0,02	0,02	0,01
		Nazorat guruhida	0,02	0,02	0,02	0,02
O'rtacha qiymat ishonch oralig'i ax, ay	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	3,33	3,28	3,3	3,34
			3,51	3,45	3,48	3,44
		Nazorat guruhida	3,33	3,27	3,3	3,34
			3,49	3,44	3,47	3,43
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	3,83	3,78	3,79	3,85
			4,04	4	4,01	3,97
		Nazorat guruhida	3,42	3,42	3,43	3,42
			3,52	3,51	3,53	3,48
Styudent statistikasi (T)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,15	0,18	0	0,18
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	7,13	6,38	6,35	11,45
		Nazorat guruhida				
Ko'rsatkichlar xulosasi	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi
		Nazorat guruhida				


Biz har bir bosqich bo'yicha matematik hisob kitoblarni olib bordik. Endi ushbu natijalarga ko'ra, Styudent statistikasining yuqoridagi 7-formulasidan foydalanib tekshiramiz va xulosalar chiqaramiz.

Tajriba guruhi: $T_m > T_{0,96} = t = 1,96$ Demak, N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz qabul qilinadi.

Nazorat guruhi: $T_n < 1,96$ bo'lib, N_0 faraz qabul qilinadi.



4-rasm: Talabalarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari



5-rasm: Talabalarining samaradorlik ko'rsatkichlari

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan OTM tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi professor-o'qituvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 1,16 (16%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Talabalarda esa bu ko'rsatkich 1,14 (14%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarador ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasasining muvozanatlashtirilgan asosiy ko'rsatkichlari tizimi va uni qo'llash samaradorligini baholash mexanizmi asosida tajriba sinov ishlarini o'tkazish asosida yakuniy xulosalar olish va natijalarni tahlil qilish ishlari, tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv (so'rovnomalar), test sinovlari va sotsiometrik metodlar (anketa, suhbat) asosida baholash ishlari olib borilgan va oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini baholash darajalari ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov ishlari olib borilgan OTMlari professor-o'qituvchilarining umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari tajriba-sinov guruhlarida qatnashgan 81 nafar professor-o'qituvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari tajriba boshida, yuqori 9 nafar (11,1 %), o'rta 29 nafar (35,7 %), past 43 nafar (53,1 %)ni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba oxiriga kelib yuqori 31 nafar (38,3 %) 27,2 % ga, o'rta 32 nafar (39,5 %) 3,7 % ga oshgan, past 18 nafar (22,2 %) 30,9 % ga kamayganini ko'rsatgan. OTMlarda strategik



boshqaruv bo'yicha tajriba-sinov ishlari maqsad va vazifalarini tashkil etish bosqichlari, baholash mezonlari, o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida takomillashtirilgan. OTMlarda strategik boshqaruv bo'yicha tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili, matematik hisob-kitoblar hamda Styudent statistikasi asosida professor-o'qituvchilar 16%ga va talabalarining samaradorlik ko'rsatkichi 14 %ga oshishiga erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni. lex.uz/docs/6102462
2. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: Пер. с англ. – М.: Дело, 1998.-704 с. С.315.
3. Дафт Р.Л. Менеджмент. 8-е изд. /Пер. с англ. Под ред. П.Мордвина. – СПб.: Питер, 2010. – 800 с.
4. Веснин В.Р. Стратегическое управление. Учебник. - М.: ТК. Велби, Изд-во Проспект, 2004. - 328 с.
5. Axmedov M.U. Umumta'lim maktab direktorlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish: Dissertatsiya. ped. fan. nom. – Toshkent: "XTTRMXQTMOI", 2019. – 155 b. 15-B.
6. Иноятлов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Дис. ... д-ра пед. наук. – Ташкент: "ИССПО", 2003. – 330 с.
7. Джураев Р.Х. Турғунов С.Т. Таълим менежменти. – Т.: Voris-Nashriyot, 2012. – 167 б.
8. Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента. – М., 1991. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. – 03.06.2010. URL: <http://gtmarket.ru/laboratory/basis/3631>
9. Гильберт Ф. Азбука научной организации труда и предприятий. Под ред. [и с предисл.] Р.С.Майзельса. Пер. [изд. перераб. К.Россан] Е.Г.Штейнберг, М.: "Вся Россия". Бюро стандартизации, 1923. 55 с.
10. Гуслова М.Н. Инновационные педагогические технологии: Учебное пособие для студентов / М.Н.Гуслова. – М.: ИЦ Академия, 2013. – 288 с.
11. Дафт Р.Л. Менеджмент. 8-е изд. /Пер. с англ. Под ред. П.Мордвина. – СПб.: Питер, 2010. – 800 с.
12. Друкер Ф. Задачи менеджмента в XXI веке: Пер. с англ.: М.: Издательский дом "Вильямс", 2004. – 272 с. С.33.
13. Злыгостев В.Ю. Управление по-японски. Особенности системы управления персоналом и мотивации труда в японском кадровом менеджменте на современных японских предприятиях: Изд. Академия Естествознания, 2016 ISBN 978-5-4472-5506-0
14. Кравченко А.И. История менеджмента 5-е изд. – М.: Академ. Проект: Трикста, 2005. – 506 с.
15. Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента. – М., 1991. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. – 03.06.2010. URL: <http://gtmarket.ru/laboratory/basis/3631>
16. Уорнер М. Классики менеджмента. / Пер. с англ. Под. ред. Ю.Н. Каптуревского. СПб.: Питер, 2001. – 1168 с.
17. Хижинская О.А. Общество и государство в Китае: XXXV научная конференция / Ин-т востоковедения; сост. и отв. Ред. Н.П.Свистунова. – М.: Вост. лит., 2005. – 311 с. - ISBN 5-02-018484-5 (в обл.). С. 230-233.
18. Эмерсон Г. Двенадцать принципов производительности// ISBN: 5-89563-006-5, М.: Бизнес-Информ, 1997. 158 с.
19. Уорнер М. Классики менеджмента. / Пер. с англ. Под. ред. Ю.Н. Каптуревского. СПб.: Питер, 2001. – 1168 с.
20. Файол А., Эмерсон Г., Тейлор Ф., Форд Г. Управление – это наука и искусство. Издательство: Республика, 1992. 322 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.